



Muxayyo MAMAJONOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
E-mail: mamajonovamuxayyo7@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d R.Shirinova taqrizi asosida

ERKAK VA AYOL NUTQIDA MUOMALA MADANIYATINING IFODALANISHI (FRANSUZ VA O'ZBEK BADIY MATNLARI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada fransuz va o'zbek badiiy matnlarida erkak va ayol nutqida muomala madaniyati ifodalanishining lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida gender lingvistika, lingvokulturologiya va pragmatika asoslari qo'llanilib, ayol va erkak nutqining ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-madaniy xususiyatlari ochib beriladi. Misol sifatida Flaubertning "Bovari xonim", Maupassanning "Azizim", Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarlaridan olingan dialoglar lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Natijada fransuz adabiyotida ayol diskursi ko'proq hissiy va romantik, erkak diskursi esa pragmatik va hukmron; o'zbek adabiyotida esa ayol nutqi sabr-toqat, sadoqat, muloyimlik bilan, erkak nutqi esa qat'iyat, mas'uliyat va ijtimoiy nazorat bilan ajralib turishi aniqlanadi. Maqola badiiy matnlarda erkak va ayol diskursining jamiyatdagi gender rollarini aks ettirishini va zamonaviy asarlarda nutqiy tenglik kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Erkak nutqi, ayol nutqi, lingvomadaniyat, gender lingvistika, fransuz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, muomala madaniyati, diskurs.

ВЫРАЖЕНИЕ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В МУЖСКОЙ И ЖЕНСКОЙ РЕЧИ (НА ПРИМЕРЕ ФРАНЦУЗСКИХ И УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ)

Аннотация

В данной статье анализируются лингвокультурные аспекты коммуникативного поведения в мужской и женской речи на материале французских и узбекских художественных текстов. В исследовании используются основы гендерной лингвистики, лингвокультурологии и прагматики, что позволяет раскрыть социально-психологические и духовно-культурные особенности речи мужчин и женщин. В качестве примера проведен лингвокультурный сравнительный анализ диалогов из произведений Г. Флобера «Госпожа Бовари», Г. де Мопассана «Милый друг» и А. Кадыри «Минувшие дни». В результате установлено, что во французской литературе женский дискурс отличается большей эмоциональностью и романтичностью, тогда как мужской дискурс носит прагматичный и доминирующий характер. В узбекской литературе женская речь характеризуется терпением, преданностью и мягкостью, тогда как мужская — решительностью, ответственностью и социальным контролем. Статья показывает, что мужской и женский дискурсы в художественных текстах отражают гендерные роли в обществе, а в современной литературе наблюдается тенденция к усилению речевого равенства полов.

Ключевые слова: Мужская речь, женская речь, лингвокультура, гендерная лингвистика, французская литература, узбекская литература, культура общения, дискурс.

THE REPRESENTATION OF COMMUNICATION CULTURE IN MALE AND FEMALE SPEECH (BASED ON THE EXAMPLES OF FRENCH AND UZBEK LITERARY WORKS)

Annotation

This article analyzes the linguocultural aspects of communicative behavior in male and female speech within French and Uzbek literary texts. The study applies the principles of gender linguistics, linguoculturology, and pragmatics to reveal the socio-psychological and cultural characteristics of male and female language use. Dialogues from Flaubert's *Madame Bovary*, Maupassant's *Bel-Ami*, and Qodiriy's *Bygone Days* are examined through a comparative linguocultural analysis. The findings show that in French literature, female discourse tends to be more emotional and romantic, whereas male discourse is pragmatic and dominant. In Uzbek literature, female speech is characterized by patience, devotion, and gentleness, while male speech reflects determination, responsibility, and social control. The article concludes that male and female discourses in literary works mirror the gender roles of their societies and that contemporary literature increasingly emphasizes communicative equality between genders.

Key words: Male speech, female speech, linguoculture, gender linguistics, French literature, Uzbek literature, culture of communication, discourse.

Kirish. Har bir tarixiy davr adabiyoti insoniyatning ijtimoiy, madaniy va til rivojlanishini o'z davriga xos tarzda aks ettiradi, xususan XVIII–XIX asr adabiyoti jamiyatning siyosiy-iqtisodiy inqiloblari, milliy uyg'onish va realizm orqali ijtimoiy qatlamlarni chuqur tasvirlagan bo'lsa, XX–XXI asr adabiyoti insoniyatning ijtimoiy, madaniy va lingvistik rivojlanish jarayonlarini chuqur aks ettiradi. Shu bilan birga, erkak va

ayolning jamiyatdagi o'rni, ularning ijtimoiy munosabatlardagi o'ziga xosligi badiiy matnlarda diskursiv shaklda ifodalanadi. Diskurs tushunchasi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda matndan kengroq, muloqot jarayonini, undagi maqsad, niyat, ijtimoiy-psixologik jihatlarini qamrab oluvchi birlik sifatida qaraladi. Erkak va ayol diskursini tadqiq etish masalasi, bir tomondan, lingvokulturologik, ikkinchi tomondan, gender

lingvistika bilan hamohang bo'lib, har ikki til va adabiyotda qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur maqolada fransuz va o'zbek badiiy matnlarida erkak va ayol nutqining lingvomadaniy ifodalanishi, muomala madaniyati, ijtimoiy rol va psixologik xususiyatlar misolida tahlil qilinadi. Dastlab erkak va ayol diskursining nazariy asoslari haqida so'z yuritiladi.

Metod. Erkak va ayol diskursi haqida fikr yuritishdan avval diskurs haqida ma'lumot berish o'rinlidir. Diskurs nutqiy jarayonning tashkillashtiruvchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va kirishuvchanlikni aks ettiruvchi murakkab tushunchadir. Har qanday diskurs ni potensial dialog deb qabul qilish mumkin. Chunki nutq o'z adresati va adresantiga ega bo'lgani bilan tezkor reaksiyaga ega emas. Suhbat jarayonida uning ishtirokchilari darajasi, o'zaro munosabatlarining turli-tumanligi aniq muloqot sharoitlariga bog'liq bo'lgan turli dialogik tiplarni hosil qiladi.

1950-yillarda tilshunoslikka "diskurs" atamasi kirib keldi, buyuk tilshunos olimlar ushbu tushunchani qabul qilgan bo'lsalar ba'zilar nutq so'zini qo'llashni afzal bilganlar, jumladan F.Sossyur "diskurs" atamasini juda kam ishlatganligi, E.Benevist esa aksincha nutq so'zi o'rniga "diskurs" atamasini qo'llaganligi ma'lum.

Erkak va ayol nutqini tadqiq etishda tilshunoslikning bir nechta yo'nalishlariga tayaniladi. Bular: Gender lingvistika – til vositalari orqali jinslararo farqlarni aniqlashga yo'naltiriladi. Lingvokulturologiya – til va madaniyat o'zaro bog'liqligi asosida gender rollarini madaniy kontekstda tushuntiradi. Pragmatik yondashuv – erkak va ayol muloqotidagi maqsad, ohang, strategiyalarni tahlil qiladi.

E. Sapirning 1949-yilda nashr etilgan "Language Culture Personality" ("Til, madaniyat va shaxsiyat") asarida Yana qabilasi hindlarning tilini tadqiq etib, erkak va ayollarning og'zaki nutqini va ularning "jins" tushunchasi bilan aloqasini o'rgangan. Ushbu Yana qabilasi erkaklari o'zaro muloqotda erkaklar nutqidan foydalanishini, ayollik nutqini ayollar har ikki jins bilan, erkaklar esa ayollar bilan muloqot qilish uchun ayollar nutqidan foydalanganligini aniqladi. Binobarin, Yang tilida ikkita parallel va bir xil ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi tizimlarning mavjudligi haqida gapirish qanchalik asosli degan savol tug'iladi. Ko'rinib turibdiki, bu holatda barcha ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan keng qo'llaniladigan standart til va maxsus "erkakcha" jargon mavjud.[1]

Robin Lakoff "Language and Woman's Place" ("Til va ayolning o'rni") (1975) asarida ayollar nutqi odatda muloyimlik, so'roq qo'shimchalari va qat'iy fikrdan qochish bilan xarakterlanishi keltirib o'tilgan. [2]

Deborah Tannen ham o'zining "You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation" (1990) ("Siz tushunmaysiz: erkaklar va ayollar muloqoti haqida") asarida erkak va ayol nutqidagi farqlarni pragmatik va sotsiokulturologik jihatdan "Ayollar va erkaklar nutqi" ("Women and Men Talking") bobida tahlil qiladi. [3]

Catherine Kerbrat-Orecchionining "L'analyse du discours" ("Diskurs tahlili") (2009) da esa og'zaki muloqotlar doimo ijtimoiy-madaniy kontekstda kechadi va gender uning ajralmas o'lchovi ekanligi ta'kidlanadi. [4]

Tahlil va natijalar. Fransuz adabiyotida erkak obrazlari ko'proq mantiqiy, hukmron, faol subyekt sifatida tasvirlansa, ayol obrazlari hissiyotga boy, nozik, lekin ko'pincha ijtimoiy bosim ostidagi shaxs sifatida talqin etiladi. O'zbek adabiyotida esa ayol obrazlari sabr, sadoqat, oilaparvarlik timsoli bo'lsa-da, zamonaviy matnlarda ularning ijtimoiy faolligi ham keng ifoda etilmoqda.

Fransuz adabiyotida erkak va ayol diskursi tahlili: Gustav Floborning "Bovari xonim" (Madame Bovary) asarida ayol diskursi Emma Bovari obrazi orqali yuksak darajada

ochilgan. Emma hayotida romantik orzular, his-tuyg'ular ustuvor. U o'zining muloqotida ko'proq hissiy rang-baranglikni namoyon qiladi: mehr-muhabbatga tashnalik, shaxsiy baxt izlash. Erkaklar (Sharl Bovari, Rodolphe, Leon) esa o'z manfaatlari va ijtimoiy roldan kelib chiqib harakat qiladilar. Bu yerda erkak diskursi pragmatik va utilitar xarakterda bo'lsa, ayol diskursi emotsional va idealistik yo'nalishda ko'rinadi. Misol uchun erkak nutqi, Sharl:

-Aytyapmanku senga, yaxshi bo'p ketadi!- dedi u Emmaning peshanasidan o'pib, -O'zingni qiynama, azizim, betob bo'lib qolishing mumkin.(131b)

– Puisque je t'assure que ce ne sera rien, dit-il en la baisant au front ; ne te tourmente pas, pauvre chérie, tu te rendras malade ! (p238)

Ushbu keltirilgan misolda erkak nutqining ratsionallik va dalda berish ohangi, himoya va g'amxo'rlik qilish pozitsiyasini ko'rish mumkin.

Ayol nutqi, Bovari xonim:

«Shuning uchun unikiga ketayotganda og'zi qulogiga yetib yurgan ekan-da», deb xulosa chiqardi Bovari xonim. «Shuning uchun yomg'irda qolishdan ham qo'rqmay, jiletka kiyarkan-da! Voy bu xotin ey... Voy bu xotin-ey!...» Bovari xonim endi uni ich-ichidan yomon ko'rib qoldi. (24b)

– C'est donc pour cela, se disait-elle, qu'il a la figure si épanouie quand il va la voir, et qu'il met son gilet neuf, au risque de l'abîmer à la pluie ? Ah ! cette femme ! cette femme !... Et elle la détestait, d'instinct. (p39)

Bovari xonimning ushbu ichki monologi o'zga ayolga bo'lgan munosabatini hissiy, emotsional reaksiyasini ifoda etuvchi mazkur parcha ayollar orasidagi raqobat va rashkni ayollar nutqiga hos bo'lgan so'zlarning takrori va undov so'zlarning qo'llanilishi orqali ifodalanmoqda.

Nutqdagi farq:

Sharl erkak sifatida muloqotda ratsional, dominant, fikrning mustahkamligi va baholovchi ohangda so'zlaydi.

Bovari xonim esa hissiyotga boy, muloyim, kinoyalarga boy ohangda o'zini ifodalaydi.

Mopassanning "Azizim" asarida esa erkak (Jorj Dyura, Foreste...) diskursi manipulyativ, hukmronlikka intiluvchi bo'lsa, ayollar diskursi (Madlen, Klotild...) ko'proq yordamchi, ammo ma'lum darajada ijtimoiy kuchga ega. Bu holat fransuz jamiyatidagi gender rollarining XIX asrdagi ijtimoiy kontekstini aks ettiradi. Foreste:

- Frak yo'q deysanmi? Ana xolos! Busiz hech kuning o'tmaydi. Shuni yaxshi bilib qo'yki, Parijda ko'rpa-to'shaging boimasa bo'lmasin, lekin frak bo'lishi shart. (16b)

- Tu n'as pas d'habit ? Bigre ! en voilà une chose indispensable pourtant. À Paris, vois-tu, il vaudrait mieux n'avoir pas de lit que pas d'habit.(p24)

Yuqoridagi parchadan anglashiladiki, erkak nutqining mantiq, tajriba va ijtimoiy haqiqatga tayanib fikr bayon qilinishi, ratsionallik, kiyim ijtimoiy mavqening belgisi va hayotiy zarurat ekanligini tan olishi, kinoya, yumor bilan fikr bayon etiladi.

Onasi hayron qoldi:-Buni qarangga, o'tirishini! YO tavba! U ko'pincha faqat ayollargagina o'pichga ruxsat berardi. Sizning joduingiz bor ekan. janob Dyurua. (36b)

La mère s'étonna :

- Tiens, elle ne s'est pas sauvée ; c'est stupéfiant. Elle ne se laisse d'ordinaire embrasser que par les femmes. Vous êtes irrésistible, monsieur Duroy.(p64)

Keltirilgan misolda onalik hissiyoti birlamchi bo'lib, iymoni yoki axloqiy reaksiya, ayollarga hos so'z o'yini, kinoyaviy xushmuomalalik, ayollar muomalasidagi yumshoqlik, hurmat va samimiyat ohangi bilan janob deya murojaat qilish namoyon etilgan.

Diskursdagi farq:

Erkak nutqi: qat'iy, hayotiy meyorlarga asoslangan, hukumronlik alomati.

Ayol nutqi: kinoyali, estetik ta'sir ko'rsatuvchi, yumshoqlik va muloyimlik, hissiy.

Ayol nutqi ko'proq ehtiyotkor va hissiy; erkak nutqi – va'dalar, sukunatga erishish, ikkala tomonlama kelishuvga intilish. Shuningdek, yuqorida keltirilgan misollardan anglashiladiki ayollar nutqi hissiyotga boyligi undov so'zlarning tez-tez va ko'p qo'llanilishi bilan ham erkaklar nutqidan farq qiladi.

O'zbek adabiyotida erkak va ayol diskursi

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida ayol diskursi Kumush obrazida jamlangan bo'lib, u nozik, mehribon, sadoqatli, shu bilan birga o'z fikrini bildiradigan shaxs sifatida gavdalanadi. Otabek bilan bo'lgan suhbatlarida Kumushning ehtiyotkor, mulohazali, ammo o'z pozitsiyasini yashirmaydigan diskursi ko'zga tashlanadi. Otabekning nutqi esa qat'iyat, mas'uliyat va jamiyat oldidagi burch hissi bilan farqlanadi. Mazkur asardan keltirilgan quyidagi Otabek va Kumush o'rtasidagi diskursni erkak va ayol diskursi nuqtai nazaridan lingvomadaniy jihatdan tahlil qilib ko'ramiz:

-Fuzuliy yaxshi kitob, dedi Kumush, men ham yolg'iz qolg'an kezlrimda bu kitobdan boshimni ololmas edim, sizammi?

- Kim yig'latdi sizni?

- Yig'labmanmi? – ko'zingiz, kipragingiz?

- O'zi shunaqa...(143-144b)

Ushbu romanidagi Kumush va Otabek suhbatidan olingan yuqoridagi parcha erkak va ayol munosabatlari, ularning nutqdagi o'ziga xosligi, shuningdek, o'zbek muomala madaniyatidagi odob, muloyimlik va ramziylikni yaqqol ko'rsatadi. Ayol diskursi (Kumush) : Kitobga murojaat: Kumush "Fuzuliy yaxshi kitob" deydi. Bu ayolning ma'naviy didi, she'riyatga mehrini ko'rsatadi. O'zbek muhitida ayolning kitobxonligi uning nafasot va ruhiy nozikligidan dalolat beradi. Samimiyat va ehtiros: "men ham yolg'iz qolg'an kezlrimda bu kitobdan boshimni ololmas edim" jumlasini Kumushning histuyg'ularni yashirmasdan, ammo muloyim ohangda ifodalashiga misol. Bu o'zbek ayol diskursida uchraydigan "uyatchan samimiyat" ifodasidir. Himoya ohangi: Otabek "Kim yig'latdi sizni?" deganda, Kumushning "Yig'labmanmi?" deya savol bilan javob berishi — ayolning o'zini himoya qilish, hisni yashirishga urinishi sifatida talqin qilinadi.

Erkak diskursi (Otabek): Savol-javob ustunligi: Otabek qisqa, ammo mazmunli savollar beradi: "Kim yig'latdi sizni?", "ko'zingiz, kipragingiz?". Bu erkak diskursiga xos faol nazorat va vaziyatga hukmronlik qilish ko'rinishidir. Diqqat markazi: Otabek suhbatni kitobdan emas, Kumushning ko'zlari va histuyg'ulariga buradi. Bu erkakning shaxsiylik va munosabatni aniqlashga intilishidir. Mulohaza va sezgirlik: Otabek ayolning ruhiy holatini noziklik bilan sezadi. Bu o'zbek erkak idealining (sergak, e'tiborli, muhabbatli) obraziga mos keladi.

Lingvomadaniy tahlil jihatida esa quyidagicha: Fuzuliy eslatilishi – o'zbek muhitida she'riyat, ishqiy gazallar, muhabbat dardi bilan bog'liq madaniy kod hisoblanadi. Kumushning Fuzuliyning sevib o'qishi – uning ma'naviy olamini ochadi. "Ko'z", "kiprik" – o'zbek madaniyatida muhabbat, go'zallikka oid ramziy timsollar. Otabekning shu belgilar orqali suhbatni yuritishi – xalqona lirik an'anaga mos. Dialog shakli – qisqa, ehtiyotkor va ishorali. O'zbek muomala madaniyatida ochiq-oydin hislarni aytishdan ko'ra, ramziy, ishorali, muloyim suhbat qadrlanadi.

Quyida erkak va ayol diskursi o'rtasidagi farqlarni keltirib o'tamiz:

Ayol: histuyg'ularni bevosita bildiradi, lekin himoya va inkor bilan ularni yumshatadi.

Erkak: savollar orqali vaziyatni nazorat qiladi, histuyg'uni ochib beradi va suhbatni ramziy belgilar (ko'z, kiprik)ga qaratadi.

Anglashiladiki, lingvomadaniy jihatdan badiiy diskurslarning tahlili quyidagicha: o'zbek madaniyatida ayolning nozikligi, uyatchanligi; erkakning e'tiborli va yetakchilik qiluvchi roli nutq orqali ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, bu parcha erkak va ayol diskursining lingvomadaniy farqlarini yaqqol ko'rsatadi: ayol nutqi – uyatchan, samimiy, ichki kechinmalarga boy; erkak nutqi – faol, savol-javob orqali hislarni yuzaga chiqaruvchi va munosabatga yo'naltirilgan.

Endi fransuz va o'zbek madaniy matnlarini qiyosiy tahlilini ko'rib o'tamiz :

Hissiylik va mantiqiylik: Fransuz adabiyotida ayol diskursi ko'proq romantik va hissiy bo'lsa, erkak diskursi amaliy va hukmron; o'zbek adabiyotida esa ayol diskursi sabr, sadoqat va mulohaza bilan, erkak diskursi esa mas'uliyat va qat'iyat bilan belgilanadi.

Ijtimoiy rol: Fransuz matnlarida ayolning jamiyatdagi o'rni cheklangan bo'lsa-da, u nutq orqali ijtimoiy ta'sir kuchiga ega; o'zbek matnlarida esa ayol diskursi ko'proq oilaviy qadriyatlar bilan bog'liq.

Muomala madaniyati: Har ikki adabiyotda ham ayol nutqi ko'pincha muloyim, yumshoq ohangda bo'lsa, erkak nutqi ko'proq hukmronlik, qaror qabul qilish bilan chambarchasdir.

Xulosa. Fransuz va o'zbek badiiy matnlarida erkak va ayol diskursi lingvomadaniy jihatdan farqlansa-da, umumiy jihatida shundaki, ular jamiyatdagi gender rollarini aks ettiradi. Ayol diskursi ko'pincha hissiyot, mehr-muhabbat, sabr-toqat bilan bog'liq bo'lsa, erkak diskursi mas'uliyat, hukmronlik va pragmatizm bilan belgilanadi.

Shuningdek, har ikki adabiyotda zamonaviylik sari intilish, ayol obrazlarining faollashuvi, erkak va ayol o'rtasidagi nutqiy tenglikning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu holat jamiyatdagi gender tenglikka intilish jarayonining adabiy ifodasidir.

ADABIYOTLAR

11. Sepir E. "Language Culture Personality" University of California Press, Berkeley 1949
12. Lakoff R. "Language and Woman's Place" Cambridge University Press 1975
13. Tannen D. "You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation" Morrow, 1990.
14. Kerbrat-Orecchioni C. L'analyse du discours. Paris: Seuil. 2009.
15. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2019.
16. Flaubert G. Madame Bovary. – Paris Édition du centenaire, 1929.
17. Flober G. Bovari honim – Ziyo nashr, Toshkent 2022.
18. Maupassant G. Bel-Ami. – Paris: Livre de Poche, 2008.
19. Mopassan G. Azizim – Toshkent Yangi asr avlodi 2006.
20. Saidov A. Gender lingvistika masalalari. – Toshkent: Fan, 2019.
21. Ravshanova R.X. Institutsional va spontan nutqda murojaat shakllari Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya Navoiy 2022.